

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA
INSTITUTI

“Kasb ta’limi” fakulteti

“Kasb ta’limi (Iqtisodiyot)” kafedrası

“ Kasb ta’limi metodikasi” fanidan

KURS ISHI

Mavzu: O’qitish jarayonida talabalar mustaqil
ishlarini tutgan o’rni. Mustaqil ta’limga alohida
diqqat qaratilishi

Bajardi:

4-KTBXA-12
guruh talabasi
Qurolova H.

Namangan-2015

Mundarija

Kirish.....	
I.Bob. O'quv jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tutgan o'rni	
I.I. Mustaqil ishlarni mazmun va mohiyati.....	
I.II. Mustaqil ishlarni o'quv jarayonida tashkil etish.....	
II. Bob. Mustaqil ishlarni tashkil qilishning xususiyatlari, tamoyillari va shakllari.....	
II.I. Kurs ishi, referat, mustaqil ish shakllari va ularga qo'yilgan talablar.....	
II.II. Bitiruv malakaviy ish yakuniy mustaqil ish.....	
Xulosa.....	
Foydalingan adbiyotlar.....	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki boshlangan ishni sabr-toqat bilan mustaqil ravishda tinmay izlanish oraqali ohiriga yetgularidagina hayotda ko'zlagan maqsadlariga erishadilar. O'quvchi talabalarga ananviy hislatli tarbiyalashda mustaqil ishlarni tashkil etish o'ziga xos muhim o'rin tutadi. O'quvchi yoshlarni hozirgi kundan axborot oqimini nihoyatda kattaligi, fan-texnika taraqqiyoti tufayli o'quvchi qanchalik mohir bo'lmasin, dars jarayonida qanchalik fan bo'yicha qanchalik bilimga ega bo'lmasin o'quvchilar bilimni yetkaza olmaydi. Uning to'ldirishni yagona yo'li o'quvchi talabalarning o'z ustidilarda mustaqil ishlashlaridir. Shu nuqtai nazardan bizga berilgan "O'qitish jarayonida talabalar mustaqil ishlarini tutgan o'rni, mustaqil talimga alohida diqqat qaratilishi" mavzusi hisoblanadi.

Mavzuni o'rganilganlik darajasi. O'qitish jarayonida talabalar ishlarini tutgan o'rni mustaqil ta'limga alohida diqqat qaratilishi mavzusini nazariy uslubiy jihatlari respublikamizdagi yetakchi pedagog olimlar Abdullayev A.X, Abduholiqiv T, Axatova D,A, Yo'dashev J, Tolipov O' Q va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mavzuning maqsadi. Kurs ishida o'qitish jarayonida talabalar mustaqil ishlarini tutgan o'rni uning elementlarini ilmiy nazariy tadqiq qilish belgilab olindi.

Kurs ishining vazifalari Qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olingan: Mustaqil ishlar mavzusi va mohiyati; mustaqil ishlarni o'quv jarayonida tashkil etish; kurs ishi, refarat, mustaqil shakllari va ularga qo'yilgan talablar; bitiruv malakaviy ish yakuniy mustaqil ish.

Kurs ishi predmeti. Kurs ishida talabalarni o'z ustida mustaqil ishlash shakllarini nazariy dastaklari belgilab olingan.

Kurs ishi obyekt. Kurs ishida mustaqil ishlarni tashkil etuvchi barcha elementlar obyekt qilib olingan.

Kurs ishining ilmiy uslubiy jihatlari. Kurs ishida O'zbekiston Respublikasida meyoriy huquqiy hujjatlardan, ilmiy adabiyotlardan gazeta va jurnallardan, internet malumotlaridan foydalanilgan.

Kurs ishini hajmi va tarkibiy tuzilishi. Kurs ishi kirish II ta bob, xulosa va takliflar va foydalingan adabiyotlardan iborat.

I.Bob. O'quv jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tutgan o'rni

I.I. Mustaqil ishlarni mazmun va mohiyati.

Resurslarning cheklanganligi bizni har bir qadmmimizda tanlov zaruriyatini qo'ydi va o'z navbatida turli variantlar orasida eng maqbulini tanlash uchun bilim, mahorat talab qiladi. Ikkinchidan bozor iqtisodiyoti sharoitida noaniqlik yo'ldosh. Uchinchidan hozirgi paytda axborot oqimi juda katta. Texnilka texnologiyadagi yangiliklarni anglab ulgrib bo'lmaydi. Bularning hammasi yoshlarimizni har jihat barkamol bo'lishlari uchun o'z ustilarida tinmay ishlash va mehnat qilish ko'nikmasini holis qilishni talab etadi.

O'quvchi talaba mustqil ishlash ko'nikmasini egallamasa, zamon darajasida mutahasis bo'lib yetisha olmaydi, chunki talabaning o'qish yillarida olgan bilimlarini ko'p qismi u faoliyat boshlagunga qadar eskiradi ko'pgina bilimlar esa unitiladi. Bilimlarni eskirishi tez axborot oqimi nihoyatda kata bo'lgan hozirgi davrda mustaqil o'qishga, o'z ustida tinmay ishlashga har bir mutahasis uchun nihoyatda zarur. Taniqli olim G. Spenser o'z o'zini takomillashtirishga katta eribor berganligini takidlab, insoniyat faqat mustaqil o'rganish uchun tufayligini taraqqiy etishini ko'rsatgan.

Malumki o'qitishning asosiy shakillari maruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat darsi sinf, auditoriyada o'tkaziladi. Ularni tashkil etish mavzular murakkabligi darajasiga beriladigan axborot miqdoriga ko'ra oldindan rejalashtiriladi, o'quv saotlari ajratiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti auditoriyadan tashqarida o'tkaziladi, unga ham avvaldan soatlar belgilanadi. Hozirgi tarqqqiyot darajasi unng nihoyatda tezlashuvi natijasida belgilangan soatlar mobaynida qo'yilgan maqsadga axborotni o'qituvchi talaba ongiga yetkazish tobora qiyinlashib boradi.

Mustaqil ishlarni bajarilishi va maslahatlarni olib borilish texnologiyasi

<i>Mashg'ulot shakli</i>	Auditoriyadan tashqari bajariladigan mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha maslahat
<i>Mustaqil ishni bajarilish rejasi</i>	1.Mustaqil ishda ko'riladigan masalani o'rganish va uni maqsad va vazifalarini belgilash. 2.Informatikaning asosiy vazifasi. 3.Axborotni qayta ishlashning yangi usullari va vositalarini yaratish, hamda ularni amaliyotda qo'llashni. 4.Texnologik jarayonlarni komp'yuter yordamida boshqarishni. 5.Fan, texnika va ishlab chikarishda axborotlarni komp'yuter yordamida qayta ishlash, saqlash va uzatish. 6.Mavzu bo'yicha yuqorida bajarilgan

	vazifalar asosida hisobot tayyorlash. 7.Hisobot asosida ma`ruza qilish uchun Power Point programmasi yordamida prezentatsiyaga slaydlar tayyorlash.
<i>Mustaqil ishning maqsadi</i>	Mustaqil ish vazifalarini bajarishdan maqsad tinglovchilarga mustaqil ravishda iqtisodiy masalaning matematik modelini tuzish, komp'yuterda echishni amalga oshirish hamda echimni tahlil qilib xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishga o`rgatishdir.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i>
Mustaqil ravishda masalaning muammo va maqsadlarini formallashtirish;	Mustaqil ravishda masalaning muammo va maqsadlarini formalashtira oladi;
Informatikaning asosiy vazifasi tanlash;	Informatikaning asosiy vazifalarini. tanlay oladi;
Axborotni qayta ishlashning yangi usullari va vositalarini yaratish, hamda ularni amaliyotda qo`llash usulini tanlash;	Axborotni qayta ishlashning yangi usullari va vositalarini yaratish, hamda ularni amaliyotda qo`llash usulini tanlay oladi;
Fan, texnika va ishlab chikarishda axborotlarni komp'yuter yordamida qayta ishlash, saqlash va uzatish;	Fan, texnika va ishlab chikarishda axborotlarni komp'yuter yordamida qayta ishlash, saqlash va uzatish algoritmini qura oladi;
Natijalarni tahlil qilgan holda qaror qabul qilish;	Natijalarni tahlil qilgan holda qaror qabul qila oladi;
Qilingan ishlar bo'yicha yozma hisobotni tayyorlab va uni prezentatsiya qilib himoya qilish.	Qilingan ishlar bo'yicha yozma hisobotni tayyorlab va uni prezentatsiya qilib himoya qila oladi.
<i>O`qitish usullari</i>	Mustaqil ish
<i>O`qitish vositalari</i>	Kurs bo'yicha tarqatma materiallar, adabiyotlar, komp'yuter dasturlari
<i>O`qitish shakllari</i>	Loyihalar usuli
<i>O`qitish sharoiti</i>	Komp'yuter sinfi, kutubxona
<i>YAkunlovchi bosqich.dagi sharoit</i>	Komp'yuter, mul'timedia proektor.
<i>Monitoring va baholash</i>	

Ish bosqich.lari	O`qituvchi faoliyatining mazmuni	Tinglovchi faoliyatining mazmuni
1-bosqich. Tayyorlov bosqich.i	1.1. Mustaqil ishlarning ro`yxati bilan tanishtiradi tanlangan mavzular bir-birini takrorlamaslik shartligini bildiradi. (1(5.4)-Ilova) 1.2. Mustaqil ish maqsadi, uni bajarilishi tartibi, tavsiyalar bilan tanishtiradi.(2(5.4)-Ilova)	Mavzulardanbirini tanlaydi. Bajarishbo`yicha tavsiyalarni yozib oladi.
2-bosqich. Tinglovchilarning mustaqil ishni bajarish bosqich.i (5 kun)	2.1.Tinglovchilarning mustaqil ishni bajarishlari jarayonida maslahatlar va ko`rsatmalar berishni tashkil qiladi. (3(5.4)-Ilova, 8(5.4)-Ilova)	2.1. Mustaqil ishda ko`riladigan masalani o`rganadilar va uni maqsad va vazifalarini aniqlab oladi. 2.2. Informatikaning asosiy vazifasi tuzadilar. 2.3. Axborotni qayta ishlashning yangi usullari va vositalarini yaratish, hamda ularni amaliyotda qo`llashni amalga oshirish uchun kerakli ma`lumotlarni yig`ish. 2.4.Yig`ilgan ma`lumotlar asosida komp'yuter dasturi yordamida ishlarini bajaradilar. 2.5. Bajarilgan hisob – kitoblar asosida mavzuni yoritish uchun grafiklar, diagram-malar ko`radilar. 2.6. Natijalarni tah-lil qiladi va ular asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqadilar. 2.7. Mavzu bo`yicha yuqorida bajarilgan vazifalar asosida hisobot tayyorlay-dilar. 2.8. Hisobot asosida ma`ruza qilish uchun

		Power Point programmasi yordamida prezentatsion slaydlar tayyorlaydilar.
3 – bosqich. YAkunlovchi (10 daqiqa)	3.1. Auditoriyadan tashqari bajarilgan mustaqil ish bo'yicha prezentatsiya qilish (5(5.4) - Ilova) 3.2. Guruh a'zolari va kursni olib boruvchi kafedra o'qituvchilari ishtirokida presskon-ferentsiya o'tkaziladi. (6(5.4) – Ilova) 3.3. Mustaqil ishni tahlil qilish varag'i yordamida bajarilgan ish baholanadi. (7(5.4) – Ilova)	Guruhda mustaqil ishlarini prezen-tatsiya va himoya qiladi. O'z xulosala-rini argumentlaydi. Savol-javoblar amalga oshiriladi. Tinglovchilar mustaqil ishning bajarilishi, yakun-lari bo'yicha fikrlar-ini o'rganadilar. Bildirilgan fikrlarni magistrlik dissertatsiyalarida tadbqiq qilish bo'yicha ishlashlari mumkin.

I.II. Mustaqil ishlarni o'quv jarayonida tashkil etish

Talabalar mutaqil ishlarini tashkil etish shakllari turlicha bo'lib, ularni bir qismi o'quv rejasida ko'rsatiladi. Uni har bir talaba bajarishi shart. Ikkinchi qismi talabalar o'z ixtiyori bilan mustaqil ish bajarishi mumkin.


Mustaqil ishlarning tashkil etishning muhim xususiyati uni o'quvchi talabani o'zi tashkil etishida. Muvofaqiyatga erishish uchun uning o'zi sabr toqat bilan, mashaqqatlar qo'rqmay o'z ustida ishlashi kerak. Buni esa o'quvchi talabaning o'zi rejalashtiradi va amalga oshiradi.

2.Mustaqil ishlash jarayonida bilimlarni eslash bilan birga ko'nikmalarni shakllantirilishi ham mustaqil amalga oshiriladi.

Borgan sari ortiq boradigan mustaqil ishni vaqtni samarali bo'lishini taminlashga ikki narsaga etibor qaratish kerak.

A)Mustqil ish – o'qishnig, aqliy alohida turi;

B) Axborotni asosiy qismini talaba mustaqil ravishda oladi. Ayniqsa internetning kirib kelishi bilan uning doirasi tobora kengayadi.



3(5.4)-Ilova

Mustaqil ishni bajarish bo'yicha maslahat va tavsiyalar

Mustaqil ish mavzulari sifatida bank, moliya, soliq sohasidagi hozirgi holatni aks ettiruvchi ma'lumotlardan, jumladan statistik ma'lumotlardan foydalanish tavsiya qilinadi

Mustaqil ish sifatida tinglovchining o'rganiladigan muammoning kompyuterda modelini yaratib tadqiq qilishi mumkin. Bu holda mustaqil ish mavzusi o'qituvchi bilan birgalikda shakllantirib olishi zarur.

Tinglovchilarning mustaqil bajargan ishlariga o'zlarining ham baho berishlari ko'zda to'tilgan bo'lib, buning uchun ular tayyorlagan hisobotlarini titul varag'ida ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha o'z ishlarini baholashlari kerak.

№	Ko'rsatkichlar	Tinglovchining o'z ishiga bahosi	O'qituvchi-ning bergan bahosi
1.	Mustaqil ish mavzusi mazmunining ochib berilishi to'liqligi (maksimum 10 % gacha baholanadi).		
2.	Vazifaning to'g'ri, aniq va to'liq shakllantirilganligi (maksimum 10 % gacha baholanadi)		
3.	Olingan natijalarning adekvatlik darajasi (maksimum 10 % gacha baholanadi)		
4.	Qilingan xulosa va berilgan tavsiyalarning asoslanganligi (maksimum 10 % gacha baholanadi)		
5.	Mustaqil ish punktlarining o'zaro mantiqiy bog'langanligi (maksimum 10 % gacha baholanadi)		
6.	Ishni bajarishda: faqat o'qituvchi bergan materiallardan foydalanib (maksimum 5 % gacha baholanadi) qo'shimcha adabiyot, Internet ma'lumotlaridan foydalanib (maksimum 5 % gacha baholanadi)		

II. Bob. Mustaqil ishlarni tashkil qilishning xususiyatlari, tamoyillari va shakllari.

II.I. Kurs ishi, referat, mustaqil ish shakllari va ularga qo'yilgan talablar. Mustaqil ishlash quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Dars o'tilgandan so'ng bajariladigan ishlar, uy vazifasini bajarishda darslik, o'quv qo'llanmalardan ishlash, konspektni tayyorlash.

2. Tupik topshiriqlarni yechish. Bunda talaba avvalgi bilimlarni xotirasi qayta tiklaydi va qisman qayta o'zgartirib aniq topshiriqlarda qo'llaydi. Masalan masala, mashq yechishda

3. O'rganilgan bilimlarni tipik bo'lmagan hollarda qo'llash. Talaba o'rganilgan bilimlarni yangi sharoitda qo'llash.

4. Ijodiy sharoitga asos yaratish. Bunda talaba o'rganilayotgan sohaning mohiyatini tushunadi, uning yangi munosabat bog'lanishlarini aniqlaydi, g'oyalar va tushunchalarni yangi sharoitga bog'laydi.

II.II Bitiruv malakaviy ish yakuniy mustaqil ish.

Bitiruv malaka ishini tayyorlash talabalarga o'rganilayotgan muamoga iqtisodiy yondashish ilmiy metodik adabiyotlarni chuqur o'rganish har tomonlama tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z fikrini aniq izchillikda bayon qilish nazariy jihatdan umumlashtirish xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning o'quv jarayoni bitiruv malakaviy ishi yozish bilan yakunlanadi.

Barcha ta'lim yo'nalishdagi bitiruvchi kurs talabalari yakuniy bosqich jarayonida bitiruv malakaviy ishi yozib, «Bitiruv malakaviy ishlari (BMI) ximoyasi bo'yicha YAKuniy Davlat Attestatsiya (YA.D.A.) komissiyalari»da ximoya qiladilar.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda O'zbekiston Respubikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrugi bilan tasdiqlangan «Oliy o'quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar»ga rioya qilinishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash talabalarda o'rganayotgan muammoga iqtisodiy yondashish, ilmiy-metodik adabiyotlarni chuqur o'rganish, xar taraflama taxlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish o'z fikrini aniq, asosli mantiqiy izchillikda bayoi qilish, nazariy jixatdan umumlashtirish, xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni o'rganishga yunaltirilgan.

«Kasb ta'limi» bakalavriat yo'nalishi talabayaari mutaxassislik «Maxsus (iktisodiy) failarni o'qitish metodikasi» fani asosida bitiruv malakaviy ishlari yozadilar.

Bitiruv malakaviy ish tadqiqot elementlari bilan amaliy masala muammolarni echish, bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga xamda o'quv yurtini bitirgach, o'qituvchi bo'lib ishlashga tayyorgarliklari darajasini aniqlashga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishlarda quyidagi vazifalar bajariladi:

- professional faoliyatning dolzarb masalalari mustaqil

tadqiq etiladi;

- o'rganilayotgan masala, xodisalardagi yangi tendensiyalar aniqlanadi;

- nazariy bilimlar mustaxkamlanadi va rivojlantiriladi;

- murakkab masala, savollarni tadqiqot elementlarini qo'llab, echimini topishga o'rganiladi;

iqtisodiy failarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan xolda samarali dars o'tish metodlari aniqlanadi;

o'rganilayotgan mavzu bo'yicha nazariy va amaliy dars o'tish o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ishlarga qo'yiladigan talablar

Kasb ta'limi yo'nalishidagi talabalarga bitiruv malakaviy ishlarini bajarish anchagina murakkab, qiyin ish. Chunki ular o'tiladigan fan bo'yicha mavzuni chuqur bilishlari, xar qanday savolga xozirjavob bo'lishlari, fandagi yangiliklar, unga e'tibor beriladigan va xali o'rganilishi, tadqiq etilishi zarur bo'lgan masalalardan xabardor bo'lishlari zarur. Xamda ana shu bilimlarni o'rganish, qanday yo'l bilan, qaysi metodlar yordamida talabalar ongiga etkazish, puxta o'zlashtirishlarini ta'minlash yo'llarini xam o'rganishlari va ularning barchasini bitiruv malakaviy ishda aks ettirishlari lozim.

Bitiruv malakaviy ishda talabaning fanni nazariy jixatdan qay darajasida o'zlashtirgani, nazariy umumlaigirishi, amaliy xulosalar chiqarishi, zarur axborotni kidirish, tanlash, ularni qayta ishlash va ma'lum tartibga solish, matnda ifodalashni uddasidan qay darajada chiqqani aks etadi.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yiladigan asosiy talab - tadqiqot materiali mazmunining ilmiy jixatdan yuqori darajada asoslanganligi, ishonchliligi, ob'ektivligini ta'minlashdir.

Bitiruv malakaviy ishga tayyorgarlik. Talabalarga kafedra tomonidan tasdiqlangan bitiruv malakaviy ishlar ruyxatida ko'rsatilgan mavzularni erkin tanlash xuquqi beriladi. Ba'zida talaba o'zining variantini xam taklif qilishi mumkin. Lekin u tasdiqlovchi materiallarga asoslangan va dolzarb masala bo'lishi kerak.

Bitiruvchi talabalar ish mavzusini tanlashlarida kafedra tomonidan maslaxat uyushtiriladi.

Bitiruv malakaviy ishlarni tanlashda talabalar bajargan kurs ishlari, ilmiy doklad mavzulariga yaqin yoki ulardan kelib chiqqan xolda yoki kelajakda ishlamokchi bo'lgan bitiruv oldi amaliyotini o'tadigan o'quv yurtining taklifi bilan mavzu tanlashlari, boshqacha aytganda, boshlagan ilmiy ishlarini davom ettirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mavzular o'quv rejasi va kelgusida olib boriladigan amaliy faoliyatning xususiyatidan kelib chiqqan xolda ishlab chiqiladi. Bitiruv malakaviy ishni yozish uchun tanlangan fanning asosiy mazmunidan va uni o'rganishdan qo'yilgan maqsadga mos bo'lishi ko'zda tutiladi.

Tanlangan mavzuni rasmiylashtirish uchun talaba kafedra mudiri iomiga ariza yozishi kerak. Talabalarga raxbar va mavzularni biriktirish III kursda, o'quv

yilining oxirida, o'zogi bilan IV kurs yangi o'quv yilining boshida amalga oshiriladi.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzularini ilmiy raxbarlarga biriktirish institut rektorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Talaba mavzuni olgach:

Raxbar bilan muxokama qilib, uni qay darajada o'rganilgani, qanday tajribalar mavjud, zarur manbalar bormi-yo'qmi aniqlanishi, yo'naltiruvchi materiallar yig'ilishi kerak.

O'rganilayotgan mavzu bo'yicha adabiyotlar tanlash, ularni taxlil qilish, zarur dalillar, statistik ma'lumotlar to'plash ular bilan tanishish, saralash zarur.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi, vazifalari va konsepsiyasini ishlab chiqib, uni raxbar bilan muxokama qilish.

Ishning dastlabki kengaytirilgan rejasini tuzib, uni raxbarga ko'rsatishi zarur. Raxbar bilan muxokama qilib, kelishgan xolda rejani kamchiliklari to'zatiladi.

To'plangan materiallar umumlashtiriladi, dastlabki matn tayyorlanadi.

Raxbarga ishning mazmuni tanishtiriladi, so'ngra u ko'rsatgan kamchiliklar ustida ishlanadi.

Kamchiliklar xisobga olingan xolda tayyorlangan ish qayta raxbarga ko'rsatiladi va roziligi bilan oqqa ko'chiriladi.

Bitiruv malakaviy ishining matnini qo'yilgan talablar bo'yicha yozib, ximoyaga taxt qilinadi.

Raxbarning xulosasi va tashqi taqriz olinadi.

YOsh kafedra tomondan tuzilgan komissiyada dastlabki xi-moya qilinadi.

BMI yakuniy davlat attestatsiya komissiyasida ximoya qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy mazmuni tanlangan mavzuni to'la aks ettirishi lozim. Bitiruv malakaviy ishining rejasi mavzuni, uning asosiy savollari yaxlitligini ta'minlashi kerak. Ishning tarkibi kirish, ikki yoki uch bob, iaragraflar, xulosa (xulosa va takliflar), foydalanshgan adabiyotlar ruyxati, ilovadan iborat bo'lib, asosiy bo'lim (bob)lar nomi mavzuning nomini takrorlamasligi kerak). Rejani quyidagicha tuzish mumkin:

I bob. «Aksiz solig'ini xisoblash va to'lash tartibi» mavzusida dars o'tishning nazariy masalalari.

1.1. Aksiz solig'ini soliq tizimida tutgan urni va uni o'rganishning maqsadi, vazifalari

1.2. Aksiz solig'ining bazasini aniqlash va to'lash tartibini o'rganishning o'ziga xos jixatlari

II bob. Mavzu bo'yicha dars o'tishda interaktiv metodlarni qo'llash.

2.1. Dars o'tishda interaktiv metodlarni qo'llash zaruriyati.

2.2. Mavzuni o'rganishda qo'llaniladigan asosiy interaktiv metodlar.

III bob. Mavzu bo'yicha dars o'tish metodlarini tanlash va ularni takomillashtirish

Mavzu bo'yicha dars o'tishning samarali metodlarini tanlash mezonlari

Dars o'tishda interaktiv metodlarni qo'llashning muammolari.

3.3. Mavzu bo'yicha dars o'tish metodlarini takomillashtirish.
Xulosa va takliflar.

Adabiyotlar ruyxati.

Ish kamida olti paragrafdan iborat bo'lishi, mavzu ikki yoki uch bobni qamrab olishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishida iqtisodiy xisob-kitoblar, jadval, diafamma, chizma, grafik va boshqalar keltirilishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishi xajmi turli jadval, sxema, grafik adabiyotlar ruyxatini xisobga olgan xolda qo'lyozma matni standart formada 70-75 bet bo'ladi.

Sararaqdan so'ng mundarija keltiriladi. Mundarijada ishning tarkibi bo'yicha xar bir bo'lim, parafaflar betlari bilan ko'rsatiladi.

Asosiy bo'limlar mazmuni:

Kirish:

Kirishda tanlangan mavzuning ahamiyati, uning dolzarbligi, qisqacha mazmunini o'rganilganlik darajasi, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob'ekti, erishilgan natijalar va uning ahamiyati ko'rsatiladi. Mazkur mavzuning mohiyatini ko'rsatish bilan o'tkaziladigan tadqiqotga qisqacha xarakteristika beriladi.

I bob. Bu bobda mavzu nazariy jihatdan asoslanib beriladi. Mavzuni o'rganishdan qo'yiladigan maqsad, o'quvchi-talabalar mavzuni o'rganish natijasida qanday ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak? qanday masala, muammolarga diqqat qilish kerakligi nazariy jihatdan asoslab beriladi.

P bob. Bu qismda mavzu talabalarga qanday etkazilishi, uning mazmunini anglab, puxta o'zlashtirishlari uchun qanday metodlar tanlash lozimligi, metodlar dars berish shakllariga ko'ra ma'ruza, amaliy darsda qanday qo'llanishi masalalari tadqiq, etiladi. Avvalgi bobdan kelib chiqib, o'rganilayotgan mavzuning qanday aloxida tomonlari bor, ularni qanday metodlar, vositalar yordamida o'rganish mumkinligini asoslab beriladi.

SH bobda dars o'tishning samarali metodlari, vositalarini tanlash, ularni takomillashtirish yo'llari yoritiladi. Bunda bitiruv oldi amaliyoti jarayonida turli metodlarni qo'llab, olingan natijalardan foydalanish muxim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

Bitiruv malakaviy ishning xulosa qismida olib borilgan izlanishga yakun yasab, ishning mazmunidan kelib chiqqan xolda xulosalar chiqariladi, xamda fanni, mavzuni puxta o'zlashtirishni ta'minlash, o'quvchi- talabalarni mustaqil fikrlash, taqqoslash, qaror qabul qilishga o'rgatish nuqtai nazaridan dars berish metodlarini, o'quv jarayonini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha takliflar beriladi.

Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi fanidan BMI yozish, boshqa mutaxassislik fanlaridan yozishga qaraganda ancha murakkab, sababi, birinchidan, talaba fanni, mavzuni chuqur bilishi, yangiliklardan xabardor bo'lishi ikkinchidan esa, ana shu mavzu savollarini dars jarayonida talabalar ongiga qanday metodlar yordamida etkazishni xam uddalashi va uni bitiruv malakaviy ishda ifodalashi zarur.

Foydadanav adabiyotlar ro'yxati:

Bu ruyxatda malakaviy ish yozish jarayonida foydalanilgan barcha adabiyotlar va boshqa manbalar sanab o'tiladi.

Adabiyotlar ruyxati yozganda talabalar ko'pincha uning qanday tartibda joylashtirishga, uni to'g'ri to'ldirishga qiynalishadi.

Foydalangan adabiyotlar ruyxatini tuzishda uni bir necha shartli guruxga bo'lgan ma'qul.

O'zbekiston Respublikasining qonuniy xujjatlari va materiallari:

O'zbekiston Respublikasining qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarorlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari va rasmiy xujjatlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari;

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari me'yoriy-xuquqiy xujjatlari.

Maxsus adabiyotlar:

darsliklar;

ujuv zullanmalar;

ilmiy monografiyalar;

doktorlik nomzodlik dissertatsiyalari;

ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruzalari to'plamlari;

gazeta va jurnal makrallari;

statistik ma'lumotlar:

nashr etilgan manbalar (statistik ma'lumotlar);

nashr etilmagan manbalar. Internet saytlari.

Maxsus adabiyotlar: darsliklar, o'quv qo'llanmalari, olimlarning asarlari, monografiyalari, va boshqa manbalar, jumladan, tarjima qilingan adabiyotlar, jurnal va gazetalar makrallari alfavit ketma-ketligida beriladi.

Muallif (yoki mualliflar) ismi-shariflari, kitob, maqola nomi, nashriyot nomi, nashr qilingan yili ko'rsatiladi.

Bob va paragraf sarlavxalari asosiy matndan yuqoridan 1 satr bo'sh joy tashlab ajratib yoziladi. Agar ular matnni o'rtasida bo'lsa, yozilayotgan parafaf tugagach (yuqoridan) 2 satr bo'sh joy tashlab matndan ajratib yoziladi.

Saxifalar, (titul varagi), mundarija (reja)dan so'ng, kirishdan 3 betdan boshlab raqamlanadi (nomerlanadi).

BMIda satr boshi (abzats)ni ajratib ko'rsatish xam muxim ahamiyatga ega.

Xar bir satr boshi muallifning yangi fikr boshlaganini ko'rsatadi. U matnda doimo bir xilda 3 yoki 5 xarf xajm chapdan bo'sh joy tashlab boshlanishi kerak.

BMIda muallif tomonidan o'z fikrini, ko'rilayotgan masalani qonun-qoida va boshqalarni ishonchligini tasdiqlash maqsadida iqtibos(sitata) keltirilsa, u albatta olinayotgan manbadagidek bo'lishi kerak. Odatda, matnda iqtibos qo'shtirnoq ichiga olinadi. Xamma iqtiboslarning manba keltiriladi. Manbalar saxifaning oxirida, matn orasida yoki matn oxirida aloxida saxifada ko'rsatilishi mumkin. Odatda, saxifa oxirida yoki matn oxirida aloxida saxifada ko'rsatishdan foydalaniladi. Ko'proq manba saxifa oxirida ko'rsatiladi.

Jadvallar, chizma, grafik rasm, xujjatlar, buxgalteriya xisobidan to'ldirilishi lozim bo'lgan shakl (forma)lar asosini matnda xam, ilovada xam arab raqamlari bilan yoziladi. Ular nomlanishi, manbasi ko'rsatilishi zarur. Agarda u talaba tomonidan tayyorlangan bo'lsa, manbaga muallif tomonidan bajarilgan deb yozishi zarur.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining rejasi, mazmuni, materialni bayon qilish uslubi, tili, iqtiboslarning manbaini ko'rsatilishi, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalarni rasmiylashtirish talabiga javob beradigan bo'lgach, raxbar unga o'z xulosasini yozib beradi. Agar talabga javob bermasa, kamchiliklarini to'g'rilash uchun qaytariladi.

Bitiruv malakaviy ishi tayyor bo'lgach, talaba xulosa yozish uchun ilmiy raxbarga beradi. Ilmiy raxbar unga xulosa (2-3 bet) yozib beradi.

Ilmiy raxbar xulosasi ishning rasmiy xarakteristikasi xisoblanadi. Xulosada raxbar asosiy dgadatni talabaning ishida mavzu savollarini qanchalik chuqur o'rganilgani, qo'yilgan talablarga javob bera olishi va ximoyaga qo'yilishi mumkinligaga qaratishi kerak.

Raxbar ishning tayyorligiga amin bo'lgach, ish kitob tarzida tiqiladi.

Ish tashqi Taqrizga beriladi. Olingan Taqriz ijobiy bo'lsa, raxbarning yozma xulosasi bilan birgalikda kafedra raxbariga topshiriladi. U taqrizni ko'rib, ishni ximoyaga qo'yish yoki qo'ymaslik masalasini xal qiladi.

Bitiruv malakaviy ishini ximoyaga qo'yish-qo'ymaslik to'g'risidagi masala talaba bilan birga kafedra yig'ilishida ko'rib chiqiladi va kafedra yig'ilishi bayonnomasida tasdiqlanadi. vaqtida bitiruv malakaviy ishini tayyorlamagan talabalar ximoyaga qo'yilmaydi. Dastlabki ximoyani muvaffaqiyatli o'tkazgan talabaning ishi YAkuniy Davlat Attestatsiya komissiyasining yig'ilishida umumiy ximoya qilish uchun qo'yiladi.

Bitiruvchi talaba ximoya kuniga qadar YAkuniy Davlat Attestatsiya komissiyasi yig'ilishiga nima sababdan aynan ana shu mavzuni tanlagani, uning dolzarbligi, ishning qisqacha mazmuni xaqida 7-10 daqiqalik ma'ruza tayyorlaydi. Bitiruv malakaviy ish ximoyasida tayyorlangan jadvallar, chizmalar va boshqalardan keng foydalanish ko'zda tutiladi.

Ma'ruza jarayonida ishning mazmuni ochib beriladi, natijalari ko'rsatiladi. qo'yilgan savollarga javoblar beriladi.

Talaba BMIning dimoyasii multimedia asosida taqdimot tayyorlash tarzida o'tkazishi xam mumkin.

Ximoya davomida komissiya raisi va a'zolari bitiruv malakaviy ish yuzasidan, raxbarning xulosasi va taqriziga oid savollar xam berishlari mumkin. Talaba ularga aniq, puxta, ishonchli javob berishga tayyor bo'lishi lozim.

Talaba tomonidan tayyorlangan bitiruv malakaviy ishi O'zbekiston Respubikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy o'quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar» asosida ishlab chiqilib, institut ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan, «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baxolash tartibi to'g'risidagi Nizom»ga ko'ra quyidagicha baxolanadi:

«Kasb ta'limi» bakalavriat yo'nalishi talabalari dars o'tish metodlarini qay darajada bilishlari va mavzu bo'yicha qo'llashni aks ettirganliklari xisobga olinadi (Izox muallifniki)

Talaba tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ishi yuqorida keltirilgan mezonlar asosida baxolanib, quyidagicha tabaqalashtiriladi:

ballgacha - «qoniqarsiz» baxo;

balldan - 70 ballgacha «qoniqarli» baxo; 71 balldan - 85 ballgacha «yaxshi» baxo;

86 balldan - 100 ballgacha «a'lo» baxo.

Bitiruv malakaviy ish ximoyasining natijasi YAkuniy Davlat Attestatsiya komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi.

Asosiy tayanch tushunchalar va atamalar

Mustaqil ishlar, mustaqil ishning maqsadi, mustaqil ishning vazifalari, mustaqil ishni tashkil etish prinsiplari, mustaqil ishning shakllari, kurs ishi, ilmiy doklad, referat, bitiruv malakaviy ishi.

Takrorlash va munozara uchun savollar

O'quv jarayonida mustaqil ishlarning to'tgan urni qanday?

Nima sababdan mustaqil ta'limga aloxida e'tibor qaratilayapti?

Mustaqil ta'limning asosiy maqsadi nima? U qanday vazifalarni bajaradi?

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning qanday asosiy prinsiplarini bilasiz?

5,. Kurs ishi, ilmiy doklad, referat va boshqa mustaqil ishlarni bajarish, sizningcha, qanday ahamiyatga ega?

Talabalar vaqtini samarali taqsimlash deganda nimani tushunasiz?

Bitiruv malakaviy ishi va uni bajarishga qo'yilgan talablarni bilasizmi? Siz ularni ko'ngildagidek bajara olishga ishonchingiz komilmi?

Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar maksimal ballning:

86 - 100 foizini tashkil etsa, "a'lo";

71-85 foizini tashkil etsa, "yaxshi";

56 - 70 foizini tashkil etsa, "qoniqarli";

55 foizdan kam bo'lsa "qoniqarsiz" baxolanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda o'quvchi talabalarga o'z ustida uzliksiz mustaqil ishlash ko'nikmasini tarbiyalashda mustaqil tashkil etish muhim o'rin tutadi.

Mustaqil ishlash talabani o'zi tomonidan tashkil etilib muayyan o'quv ishlari izchil va uzliksiz ravishda o'qituvchining rahbarligi va nazorati asosida amalga ishirladi. Yuqorida ko'rib chiqilganidek mustaqil ishlashning turli shakllari mavjud bo'lib ularni barchasi talabalarga ijodiy ishlash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Mustaqil ishlarni bajarishda talabalarni vaqtini to'g'ri taqsimlash ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun talabalar bajaradigan ishlarni muhimligi muddati nuqtai nazardan ularni bajarish ketma-ketligi to'g'ri belgilash va rivojlantirishni o'rganish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to`g`risida”gi qonuni, // Xalq so`zi, 2004 yil, 11-fevral.
2. O`zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to`g`risida”gi qonuni, // Xalq so`zi, 2004 yil, 21-may.
3. O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” to`g`risidagi qonuni. Oliy ta`lim. Me`yoriy hujjatlari to`plami: Mualliflar jamoasi. — T.: SHarq , 2001, 672-b.
4. “Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to`g`risida” O`zbekiston Respublikami Prezidenti Qarori. // Xalq so`zi, 2005 yil, 3-iyun’.
5. “Komp’yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommu-nikatsiya texnologiyalarini joriy etish to`g`risida” O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. // Xalq so`zi, 2002 yil, 6-iyun’.
6. Farbermai B.L., Musina R.G. Faktori, vliyayushie na kachestvo podgotovki spetsialistov // Ta`lim muammolari, 2000, № 1.
7. A.X Qosimov. F.A Xoliqova. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiyalar fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent 2004